

Idrok jarayonining individual farqlari va ularni o'rganishning psixologik asoslari

Malika Olim qizi Roziqova
Nargiza Alisher qizi Hikmatillayeva
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada idrok jarayonidagi individual farqlar psixologik nuqtai nazarlar tahlil qilindi. Avvalo, idrok tushunchasi hamda uning psixologik tarkibiy jihatlari ko'rib chiqildi. Keyin individual farqlar - masalan, shaxsiy xususiyatlar, shartli tajriba, appersepsiya, impulsivlik va boshqa omillar - idrokga qanday ta'sir qilishini ko'rsatish uchun mavjud tadqiqotlar sharhlendi. Metodologik jihatdan, psixologik korrelatsion tadqiqotlar va latent omillar modellari yondoshuvlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: idrok, individual farqlar, appersepsiya, impulsivlik, vizual idrok, psixologik metodologiya

Individual differences in the process of perception and the psychological foundations of their study

Malika Olim kizi Rozikova
Nargiza Alisher kizi Hikmatillaeva
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes psychological perspectives on individual differences in the process of perception. First, the concept of perception and its psychological components are examined. Then, existing studies are reviewed to show how individual differences - such as personal characteristics, conditioned experience, apperception, impulsivity, and other factors - influence perception. Methodologically, psychological correlational studies and latent factor model approaches are analyzed.

Keywords: perception, individual differences, apperception, impulsivity, visual perception, psychological methodology

Kirish

Inson idroki nima deydigan bo'lsak u inson ongida tashqi olamdan keladigan ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va ularni tushunish orqali mazmunli tasvir hosil qilish jarayonidir [1]. Idrok insonning kundalik hayotida qarorlar qabul qilish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish va atrof-muhitga moslashish kabi muhim funksiyalarni

bajaradi. Shu bilan birga, idrok jarayoni faqat sezgi organlaridan keladigan signal emas, balki shaxsning oldingi tajribasi, bilimlari, motivatsiyasi va hattoki kayfiyatiga ham bog'liq bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar natijasida bir xil tashqi ma'lumotni turli insonlar har xil tarzda idrok qiladi. Bu holat idrokdagi individual farqlar deb nomlanadi. Individual farqlar shaxsiy xususiyatlar, kognitiv uslublar, sezgi sezgirligi, impulsivlik darajasi, shuningdek, appersepsiya-ya'ni yangi ma'lumotni oldingi tajriba va bilim asosida qayta ishlash qobiliyati bilan belgilanadi. Masalan, bir kishi rasmiy vaziyatda yuzlar ifodalarini oson anglab, ularni xotirasida saqlay olsa, boshqasi faqat umumiy kontekstni sezadi va kichik detallarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Shu sababli, idrok jarayonidagi individual farqlar insonning kognitiv va psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni chuqur o'rganish psixologik nazariya, diagnostika va amaliyot uchun uklan ahamiyat kasb etadi[2].

Bundan tashqari, idrokdagi individual farqlarni o'rganish insonni psixologik jihatdan yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, pedagogik amaliyotda talabaning idrok xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishi, psixologik konsultatsiyada esa shaxsiy tavsiyalarni berishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin[3]. Shu bilan birga, nevrologik va psixodiagnostik tadqiqotlar idrokdagi individual farqlarni aniqlash orqali kognitiv funktsiyalar va nevrologik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi

Idrok jarayonidagi individual farqlar mavzusida ko'plab psixologik tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, idrok nafaqat sezgi organlarining faoliyati natijasida yuzaga keladi, balki shaxsning oldingi tajribasi, bilimlari, shaxsiy xususiyatlari va motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Appersepsiya kontsepsiyasiga ko'ra, yangi ma'lumotlarni qabul qilish va tushunishda shaxsning ilgari o'rgangan bilimlari va tajribasi muhim rol o'ynaydi [4]. Misol qilib oladigan bo'lsak, vizual idrok tadqiqotlarida, turli shaxslar bir xil rasm yoki stimullarni turlicha talqin qilishi kuzatilgan, bu esa idrokdagi individual farqlarni namoyon qiladi.

Shuningdek, shaxsiy xususiyatlar - masalan, impulsivlik, shizotipiya yoki ekstraversiya - idrok jarayonini sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, impulsiv shaxslar vizual ma'lumotlarni qayta ishlashda tezkor, lekin ba'zida xatolik ehtimoli yuqori strategiyalarni tanlaydi, natijada ehtiyotkor shaxslar ayni vazifani sekinroq, lekin aniqroq bajaradi. Shizotipiya xususiyati yuz va obyektlarni idrok etishda farqlarga olib keladi, bu esa shaxsning idrokdagi sezgirligini va tavsiyalarni qabul qilish qobiliyatini keskin o'zgartiradi[5].

Idrokdagi individual farqlarni o'rganishda ko'plab zamonaviy yondoshuvlar qo'llaniladi. Misol uchun, latent omillar tahlili idrok jarayonidagi farqlarni bir nechta mustaqil omillarga ajratishga imkon beradi. Bu yondoshuv orqali idrokdagi farqlar

yagona umumiy omil bilan tushuntirilmaydi, balki bir nechta psixologik va biologik omillar birgalikda rol o'ynaydi.

Rang idroki bo'yicha tadqiqotlar individual sezgirlikdagi farqlarni ochib beradi. Masalan, bir guruh odamlar qizil va yashil ranglarni bir-biridan aniq ajratishga qodir bo'lsa, boshqalar esa bu farqlarni sezishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat idrokning shaxsiy, kognitiv va biologik asoslari o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni yaqqol namunasini[6].

Idrokda individual farqlar murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, ularni o'rganishda nafaqat psixologik, balki biologik, madaniy va shaxsiy omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, zamonaviy psixologik tadqiqot metodlari, xususan latent omillar tahlili va korrelatsion yondoshuvlar, idrok jarayonidagi farqlarni tizimli tarzda aniqlash va tahlil qilish imkonini yaratib beradi.

Metodologiya

Idrok jarayonidagi individual farqlarni o'rganish uchun nazariy-tahliliy yondoshuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida mavjud psixologik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar adabiyotlar sharhi orqali tahlil qilindi. Shu bilan birga, idrokda individual farqlarni aniqlashda ishlatiladigan zamonaviy metodlar, xususan latent omillar tahlili korrelatsion tadqiqot yondoshuvi ko'rib chiqildi. Bu metodlar idrok jarayonidagi turli shaxsiy xususiyatlar, tajriba va sezgi sezgirliigi kabi omillarni tizimli tarzda aniqlash va ularni bir-biri bilan bog'lash imkonini beradi.

Tahlil va Natijalar

Idrok jarayonida kuzatiladigan individual farqlar murakkab psixologik va biologik omillarning natijasi hisoblanadi. Shaxsning oldingi bilim va tajribasi idrok jarayonida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ilgari ilmiy yoki san'at bo'yicha tajribaga ega bo'lgan shaxslar vizual stimullarni tahlil qilishda noaniq detallarni aniqlashda ustunlik qilishgan. Hamda, ilgari olingan tajribalar ma'lumotni qabul qilish va uni talqin qilish tezligini ham oshiradi, bu esa appersepsiya omilining idrokga sezilarli ta'sirini ko'rsatadi.

Shaxsiy xususiyatlar, impulsivlik, ehtiyotkorlik, ekstraversiya va shizotipiya, idrok jarayonining individual strategiyasini shakllantiradi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, impulsiv shaxslar vizual ma'lumotni tezroq qayta ishlashga moyil, ammo noto'g'ri talqin qilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ehtiyotkor shaxslar esa ma'lumotni sekinroq qayta ishlaydi, lekin aniqlik darajasi yuqori bo'ladi. Shizotipiya xususiyati esa yuz ifodalarini idrok etish, detallarni sezish va vizual kontekstni tushunishda farqlarga sababchi bo'ladi.

Idrokda individual farqlarga biologik va sensor omillar ham ta'sir qiladi. Misol sifatida olsak, rang sezgirliigi, vizual maydonni qamrab olish va neyrofiziologik xususiyatlar bir shaxsda boshqasiga nisbatan idrok jarayonini sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim shaxslar qizil va yashil ranglarni bir-biridan aniq ajratishda ustun

bo'ladi, boshqalar esa rang farqlarini sezishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat idrokning biologik asoslari va individual sezgirlik bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Latent omillar tahlili va korrelatsion tadqiqot yondoshuvi idrokdagi individual farqlarni tizimli ravishda aniqlash imkoniyatini beradi. Idrok jarayonidagi farqlar bir nechta mustaqil omillardan iborat, ular bir-biri bilan bog'liq, lekin har biri o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Masalan, appersepsiya va shaxsiy xususiyatlarning kombinatsiyasi ma'lumotni qabul qilish tezligi va aniqligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda, turli xil vazifalar va stimullar idrokdagi farqlarni turlicha namoyon qiladi, bu orqali tadqiqot natijalarini umumlashtirishda vazifa va kontekstni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillarga asoslansak, idrokdagi individual farqlar yagona omil bilan tushuntirilmaydi, ular bir nechta psixologik, biologik va sensor omillarning o'zaro ta'siridan paydo bo'ladi. Bu natijalar individual farqlarni o'rganishda metodologik yondoshuvlarning naqadar aniqligi va turli xil vazifalarni sinashning zarurligini isbotlaydi.

Xulosa

Idrok jarayonidagi individual farqlar va ularni o'rganishning psixologik asoslari o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida, idrok jarayonida har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular shaxsiy tajriba, appersepsiya, shaxsiy xususiyatlar va biologik omillar orqali shakllanadi. Idrokdagi farqlar yagona omil bilan izohlanmaydi, balki ko'plab psixologik va sensor omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi[1].

Appersepsiya va oldingi tajriba idrok jarayonini sezilarli darajada shakllantiradi, shaxsiy xususiyatlar, impulsivlik, ehtiyotkorlik, ekstraversiya va shizotipiya kabi idrok strategiyasini belgilaydi, biologik va sensor omillar esa vizual va rang idroki kabi aspektlarga ta'sir qiladi. Bu orqali individual farqlarni o'rganishda metodologik yondoshuvning aniqligi va turli kontekstlarni hisobga olish zarurligini yaqqol namunasi.

Shu asnoda, idrokdagi individual farqlarni chuqur o'rganish psixologik nazariya, diagnostika va amaliyot uchun katta ahamiyat kasb etarkan. Misol qilib oladigan bo'lsak, pedagogik va klinik amaliyotda talabanning yoki bemorning idrok xususiyatlarini hisobga olish samarali tavsiyalar berish va qaror qabul qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda idrok jarayonidagi individual farqlarni biologik, kognitiv va madaniy omillar kontekstida yanada batafsil o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Inson idroki va uning shaxsiy xususiyatlari o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni yana ham chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev, E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 520 b.
2. Xaydarov, F.I.; Xalilova, N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010. – 384 b.
3. Rasulova, Sh. Umumiy psixologiya. – Toshkent: SAMMU nashriyoti, 2002. – 276 b.
4. Zufarova, M.E.; Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2008. – 468 b.
5. Namangan davlat universiteti. Umumiy psixologiya: elektron darslik. – NamDU, 2024. – 210 b.
6. Utepbergenov, MA va Roziqova, MOQ (2025). Oilada yashaydigan nizolarning bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga ta'siri hamda nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Fan va ta'lim , 6 (2), 320-325.
7. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).
8. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOYPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. PEDAGOGS, 48(2), 49-51.
9. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).
10. Diyora Ahmadjonova, & Azimaxon Odiljon Qiz Kamolova (2025). Neyrografika mashg‘ulotlari orqali ongosti muammolarini yechish va maqsadga erishish usullari tadqiq etish. Science and Education, 6 (3), 355-360.
11. Saidbek Dilmurod O‘G‘Li Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. Science and Education, 6 (2), 313-319.
12. Kamolova, A. (2024). KASBIY KASALIKLARNI OLDINI OLISHDA VA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 16(8).
13. Azimaxon, K. (2025). The Role of Pedagogical Techniques in Preventing Diseases That Arise Among Students During Professional Activities. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(07), 57-59.